

Komilov Xayotillo Omatilloevich
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
moddiy ta'minot sikli katta yo'riqchi III- darajali serjant

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan samarqand shahrida joylashgan bir nechta tarixiy obidalar haqida va ularning ichida shohi zinda tarixiy obidasi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kallit so'zlar: shohi zinda, smamarqand, obida, me'morchilik, tarix, madaniyat, sivilizatsiya

Abstract: This article provides information about several historical monuments located in the city of Samarkand, one of the oldest cities of our country, and among them, the Shahi Zinda historical monument.

Keywords: shahi zinda, Smamarkand, monument, architecture, history, culture, civilization

Samarqand dunyo taraqqiyotining eng qadimgi va markaziy shaharlaridan biri bo'lib, jahon madaniyati va fani xazinasiga katta hissa qo'shgan shahardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati rahbarligida mustaqillik yillari Samarqand shahridagi arxitektura yodgorliklarini tiklash va ta'mirlash, ayniqsa, eski shahar qismini qayta qurish va ta'mirlash, obodonlashtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Temuriylar sulolasi yaratgan arxitektura yodgorliklari Misr, Xitoy, Hindiston, Gretsiya, Italiya kabi davlatlarda yaratilgan arxitektura obidalaridan aslo qolishmaydi.

Mustaqillik yillarida qaytadan barpo etilgan al Buxoriy, Motrudiy va boshqa tarixiy majmualar tahsinga sazovordir. Samarqand qadimiy Rim bilan tengdoshdir. Uning tarixiy madaniyatining quyi qatlamlari eramizdan avvalgi I ming yilliklarga borib taqaladi. U qadimgi va hozirgi jumboqli Sug'd davlatining poytaxti Maroqand shahri qoldiqlari bilan tillashadi. Samarqand shahridagi Afrosiyob juda ko'p qonli voqealarni boshidan kechirgan.

Afrosiyob Samarqand shahrining qadimiy qoldiqlari, uzoq asrlar davomida 10-15 metr chuqurlikda ko'milib ketgan arxeologik qazilmalari bilan mashhur, qadimiy aholisi VI-VIII asrlarda hozirgi Samarqand shahri yaqinidagi tepaliklarda, taxminan 2 kv km maydonda yashagan. Samarqand shahri yodgorliklari o'zining buyukligi bilan odamlarni qoyil qoldirgan. Uning binolari devorlaridagi zangori naqshlari, arxitektura shakllari, turli ko'rinishlardagi geometrik shakllari bilan kishini hayratga soladi. Bular Registon, Shohi Zinda, Go'ri Amir maqbaralari ansamblidir.

Samarqand atrofidagi Afrosiyob tepaliklari bo'ylab Shohi Zinda me'morchilik ansamblining 11 ta maqbaralari joylashgan. Bu ko'chalarni qurishni hech kim rejalashtirmagan, ular o'z-o'zidan yuz yillar davomida barpo etilgan. Shohi Zinda so'zi „Tirik shoh“ ma'nosini anglatib, uning madaniyati bu yurtlarga islom kirib kelgunicha gullab-yashnagan. Afrosiyob gullab-yashnagan davrlarda uning shuhrati shu darajada yuqori ediki, o'sha davrdagi islom peshvolari u bilan kurashishga hayiqishgan. Shohi Zinda maqbarasi — Samarqanddagi me'moriy yodgorlik 11—20-asrlar; Afrosiyob tepaligi janubida

joylashgan qabristondagi maqbaralardan hamda masjid, minora va madrasadan iborat ansambil. Eng qadimiy maqbarasi Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, xalq orasida Shohizinda (tirik shoh) nomi bilan mashhur. Ansambl bir-biri bilan yo'lak orqali bog'langan 3 guruh binolardan iborat. Quyi guruhdagi inshootlar Ulug'bek o'g'li nomidan qurdirgan Abdulaziz chortog'i (1434—35), unga shim. dan Davlat qushbegi madrasasi (1812—13) tutash, uning qarshisidagi ayvonli masjid naqshlar bilan nafis bezatilgan. 40 bosqichli tik zinapoya o'rtalig'ining chap tomonida ziyoratxona va go'rxonadan iborat qo'shgumbazli maqbara (15-asr) joylashgan.

O'rta guruhdagi binolar: Amirzoda maqbarasi, Tug'lu Tekin maqbarasi, Shirinbeka og'o maqbarasi, uning qarshisida Temurning boshqa singlisi Turkan og'o maqbarasi, 8 qirrali maqbara, Ali Nasafiy maqbarasi kabilar.

Yuqori guruhdagi binolar: Ziyoratxona, uch qismdan iborat masjid, Xoja Ahmad maqbarasi, 1360—61 yillarda qurilgan maqbara, Tuman og'o majmuasi (1405—06), 2 ta nomsiz maqbara (14-asr oxiri)ning kiraverish devorigina saqlangan. Shuningdek, Tamg'och Bug'roxon madrasasi (11-asr), Amir Burundiq maqbarasi (14-asr oxiri) kabilardir.

Ansambl tarkibidagi 20 dan ortiq inshootlar davlat muhofazasiga olingan. 19—20-asrlarda ansamblning yana bir necha binolari barpo etilgan. 18-asrda vayron bo'lgan zina o'rnida 40 pog'onali g'ishtin yangi zina qurilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 16 iyul qaroriga asosan Shohizinda yodgorlik majmuasida katta ko'lamdagi ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Markaziy Osiyo me'morchiligi tarixida alohida e'tiborga sazovor bo'lgan Shohizinda haqida yuz marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan ma'qulroq deb o'ylaymiz. Qadrli sayyoh, Shohizinda zinapoyalariga ohista qadam qo'yib bu yerdagi sukunatga quloq tuting. Bu muqaddas tuproqda Buyuk Turonning ne-ne ulug'lari abadiy o'yquda yotibdilar.

Mirzo Ulug'bek zamonasidan buyon bu maydon Samarqand ahli uchun Bosh maydon hisoblanadi. Samarqand hukmdorlarining farmonlari shu yerdan e'lon qilinadi. Yovga qarshi erk jangiga otlangan jasur lashkarlar, aynan, shu maydonda qasamyod qilishib keksalardan duo-fotiha olganlar... Registon maydonida olib borilgan arxeologik qazishmalarning ko'rsatishicha, ibtidoiy jamoa davrida bu yerda ulkan changalzor bo'lib eng qadimgi ovchilar changalzorda har xil yovvoyi hayvonlarni ovlaganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. zarzaminblog.wordpress.com
2. ilmlar.uz
3. silkroadsamarkand.uz